



**RUXIY HAMDA JISMONIY RIVOJLANISHIDA NUQSONI BOR BOLALAR
BILAN OLIB BORILADIGAN TALIMIY VA TARBIVAVIY JARAYONLAR**

*Andijon davlat pedagogika instituti
Maktabgacha ta'lim fakulteti 1-bosqich talabasi,
Ikramova Shukronabonu Shukurilla qizi
Ilmiy raxbar: Iminova Dilnoza Nasirovna*

Doi: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15233937>

Annotatsiya: Ushbu maqolada ruxiy hamda jismoniy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar bolalar bilan olib boriladigan talimiy va tarbiyaviy jarayonlar yoritilgan. Maxsus talim muassasalari, Maktabgacha ta'lim muassasalari hamda inkulziv ta'lim tizimida bunday bolalar bilan ishlashning asosiy usullari, pedagogik yondoshuvlar va psixologik qo'llab quvatlash masalalari taxlil qilinadi. Bolalarning individual extiyojlariga mos metodlar, texnologiyalar va inovatsion pedagogik yondashuvlarning samaradorligi ko'rsatib o'tilgan. Shuningdek Ota-onalar hamda jamiyatning bunday bolalarni qo'llab quvatlashdagi o'rni haqida ham muxokama qilingan. Ruxiy hamda jismoniy cheklovlari bor bolalar bilan ishlash bo'yicha amaliy tavsiyalar taqdim etilgan.

Kalit so'zlar: rivojlanish, ruhiy, ijtimoiy, pedagog, jismoniy, individual, texnologiyalar, metodlar.

Bugungi kunda yosh avlodni ma'nan yetuk, jismonan sog'lom hamda aqlan barkamol qilib tarbiyalash davlatimizning oldiga qo'yan ustuvor vazifalardan biri desak adashmagan bo'lamiz. Davlatimiz bu o'rinda rivojlanishida muammolari bo'lgan bolalarga ham judda katta etibor qaratmoqda. Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar dastavval o'z oilasida ota-onasining bag'rida ma'nan, ruhan, jismonan va aqlan rivojlana olishlari uchun ham moddiy ham ma'naviy shart sharoitlarni yaratmoqda. Farzandlar tarbiyasi ko'p jihatdan oiladagi muhit, ota-onalarning bola tarbiyasidagi munosabatlariga bog'liqligini hisobga olgan holatda qator qonunlarni ham joriy qilgan.

Ruhiy hamda jismoniy nuqsoni bo'lgan bolalar, jamiyatimizning o'ziga xos, ajralmas, va muxim qisimlaridan biridir. Shu sababli ularga ta'lim tarbiya berish jarayoni ham o'ziga hos yondashuvlarni talab etadi. Jamiyatning bunday qatlami bilan olib boriladigan har qanday talimiy va tarbiyaviy jarayonlar, ularning extiyojlari va muammolaridan kelib chiqib tuziladi va amalga oshiriladi. Ularning ta'lim tarbiya jarayoniga masuliyat bilan yondashish talab etiladi chunki har bir bola o'ziga xos xususiyatlarga egadir. Ruxiy hamda jismoniy nuqsoni bo'lgan bolalarni o'qitish sog'lom bolalarni o'qitishdan ko'ra ulardagi nuqson darajalariga qarab, odatiy talim usullaridan o'zining tarkibiy tuzilmasi, maqsad hamda vazifalariga qarab farqlanadi. Rivojlanishida nuqsoni bor bolalarga samarali talim, tarbiya berish, ijtimoiy moslashuvni yaratish uchun rivojlanish imkoniyat va uning hususiyatlarini to'g'ri baholay olish bilan bog'liqdir.

Yuqorida aytib o'tilganidek, bunday bolalarga ta'lim-tarbiya berishda eng avvalo ulardagi imkoniyatlarni to'g'ri baholay olish, va nuqsonlarni qay darajada jiddiy ekanligini chuqur o'rganish va taxlil qilish muhim hisoblanadi. So'ngra pedagog taxlil natijalariga tayangan holatda bolaga to'g'ri metodikalardan foydalangan holatda samarali ta'lim beradi. Tahlillarga tayangan holatda olib borilgan ta'lim va tarbiya jarayonlarida esa sifat va samaradorlik darajasi bir muncha yuqori bo'lishi muqarardir.

Bunday bolalar bilan ishlashda yana bir muhim jihatlardan biri bu individual yondashuvdir. Sababi har bir bola o'ziga hos xususiyatlarga ega va ulardagi nuqsonlar ham turlicha. Pedagoglar har bir bolaning rivojlanish darajalarini aniqlashlari va shunga muvofiq holda o'quv faoliyatlarini rejalashtirishlari kerak bo'ladi. O'qitish usullarining ham turlicha bo'lishi samaradorlikni yuqori bo'lishiga xizmat qiluvchi asosiy omillardan biridir, masalan; eshitish, amaliy faoliyatlar, visual yoki o'yindan foydalanish mumkin.



“O‘yin”-bolalarga ta‘lim-tarbiya berishning eng oson va eng samarali va asosiy usullaridan biridir. Jumladan, rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolarga ham samarali foyda beradi. Misol qilib oladigan bo‘lsak, matorikani rivojlantiruvchi o‘yinlardan foydalanish jismoniy nusonlardan halos bo‘lishga yoki diqqatni jamlovchi o‘yinlar ruhiy nuqsonlarni bartaraf etishga yordam berishi mumkin.

Bu holatda asosiy urg‘u pedogogning mahoratiga bog‘liq bo‘ladi, bolalar uchun to‘g‘ri metodikalarni qo‘llash eng muhimidir. Agar bola ta‘lim tarbiyasida zarracha hatolikga yo‘l qo‘yilsa bu katta muammolarga va katta yo‘qotishlarga olib kelishi mumkin.

Ota-onalar bilan hamkorlik;

Nuqsonli bolalarning tug‘ilishi oila taqdirini tubdan o‘zgartiradi. Farzand tarbiyasida ota-onalar zimmasida juddayam ko‘p masulyatli vazifalar mavjud, nuqsoni bor bolalarni tarbiyalashda esa ko‘plab qiyinchiliklarga uchrashlari tabiiy holatdir. Bu borada ota-onalar, pedogoglar va boshqa mutahasislarning birgalikda ish olib borishlari eng to‘g‘ri yo‘ldir, ushbu hamkorlik bolalarning muvafaqqiyatli rivojlanishi va jamiyatga integratsiyalashuv jarayonini osonlashtirishda yordam beradi. Agar bu zanjir uzulsa va ular o‘zaro hamkorlikda ish olib bormasalar nuqsonlarni bartaraf etilishi birmuncha uzoq vaqt talab etishi yoki, umuman samara bermaslik holatlariga olib kelishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, ruhiy hamda jismoniy rivojlanishida nuqsoni bor bolalar bilan olib boriladigan ta‘limiy va tarbiyaviy jarayonlar ko‘p jihatdan murakkabligi bilan ajralib turadi. Ushbu jarayonda individual yondashuvlar, o‘yinlar va ota-onalar bilan hamkorlikda ish olib borish muhim ahamiyatga ega, bir biriga chambarchas bog‘langan muhim jarayondir. Faqatgina shunday yondashuv orqaligina biz bu bolalarni to‘laqonli rivojlanishiga o‘z hissamizni qo‘sha olgan bo‘lamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Universal xalqaro ilmiy jurnali maxsus soni 2024-yil, iyul ,
2. Sarvar Tursunmurotovich Sobirov; Rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalarni o‘rganish va tasviriy faoliyat jarayonida nutqini rivojlantirish. Academic research in educational science Volume 4, 2023
3. D.T.Yuldosheva Z.X.Xasanboyeva; Jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bor bolalar bilan ishlashda yangicha yondashuv. Innovative Academy RSC.
4. Mo‘minova, G. (2023). Maktabgacha talim tashkilotlari tarbiyachilarining umummadaniy kompetensiyalarini rivojlantirish texnologiyalari. Science and innovation in the education system, 2(2), 122-126.
5. Gulhayo, M. (2023). Technologies for development of general competences of preschool teachers. Science and Innovation, 2(4), 632-634.
6. Iminova D. (2024). Innovativ loyihalar vositasida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida o‘qish motivatsiyasini rivojlantirishning mazmuni. Экономика и социум, (5-2 (120)), 266-274.
7. Iminova, D. N. (2021). Maktabgacha ta'lim tashkiloti va maktab o'rtasidagi hamkorlikning ahamiyati. Science and Education, 2(1), 301-303.